

TA’LIM JARAYONIDA O‘QUVCHILARNI FAOLLASHTIRISHDA FAN O’QITUVCHILARINING RO’LI

Z.X.Ibragimova-Hazorasp tumani 51-son məktəb psixologı

Annotatsiya

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarni faollashtirish, ularning bilim olish jarayonida mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. O’qituvchilar bu jarayonda o’z rollarini to’g’ri belgilab, o‘quvchilarga motivatsiya berish, ularni faol ishtirok etishga undash va ta’lim mazmunini qiziqarli qilish uchun turli uslublardan foydalanishlari zarur. Ushbu tadqiqotda fan o’qituvchilarining o‘quvchilarning faoliyatini oshirishdagi roli, pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlardan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. O‘quv jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlar, hamda ta’lim muhitining ahamiyati alohida e’tiborga olinadi.

Kalit So’zlar: Ta’lim jarayoni, O‘quvchilarni faollashtirish, Fan o’qituvchilari, Pedagogik texnologiyalar, Interaktiv metodlar, Motivatsiya, Ta’lim muhitining ahamiyati, Mustaqil fikrlash, Ijodiy yondashuv, O‘quvchi-o’qituvchi munosabatlari.

Ta’lim – tarbiya jarayonida pedagogik faoliyatni olib borishda pedagogik-psixologik bilimlarning samarasi malakali o‘qituvchining tayyorgarligiga va uning ta’lim - tarbiya jarayonini tashkil qiladigan eng maqbul shakl, uslub va vositalarni izchil, muayyan sharoitlarda qat’iy tizimlilik asosida amalga oshirishga bog‘liq faoliyatdir.

Ta’lim sohasidagi islohotlarni amaliyotda samarali amalga oshirishning muhim shartlaridan biri bu, pedagoglarning pedagogik-psixologik bilimlarga ega bo‘lishi va o’sha bilimlarni o‘quvchilar guruhlari bilan ishslash jarayonida tadbiq qila olishini talab etadi. O‘qituvchi tomonidan amalga oshiriladigan har qanday faoliyatni pedagogik-psixologik bilimlarga tayangan xolda amalga oshirishlishi muayyan ketma-ketlik hamda tizimlilik asosida olib borilishi maqsadga muofiqdir.

Bugungi kun o‘qituvchisi jamiyatda o’z o‘rnini topib olishi va unda kuchli raqobatbardoshlik muxitini yo‘qotmasligi, shuningdek, kasbiy nuqtai-nazardan ijtimoiy-ma`naviy soha rivojiga o’z ulushini qo‘sishi uchun shunchaki ma’lumotli

bo‘lish bilan chegaralinishi yetarli emas. Chunki zamona zayli har bir shaxsdan tom ma`noda faollikni talab qilmoqda. Ho‘sish faol shaxs kim? Uning ijtimoiy parametrlarini qanday belgilash mumkin?

Yuqoridagi savollarga o‘qituvchining mutaxassis sifatida tayyorgarligining shartlari shunchaki bilimlilikni emas, balki intelektuallikni, keng dunyoqarashi, o‘tkir tafakkurlilikni, ijodiy sermahsul faoliyat yuruta olish qobilyatini, shu bilan birga tashabbuskorlikni, tashkilotchilik, muloqotchanlik, yuksak madaniyatllik va ma`naviyatlilikni talab qiladi. Ha, ko‘rinib turibdiki, o‘qituvchi shaxsiga juda jiddiy va qat’iy talablar qo‘yilgan. Shu bilan birga Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga binoan shaxs faolligini, uning potensial imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish o‘quv-biluv faoliyati orqali qisqa muddatlarda samarali amalga oshirilishi darkor.

Aynan o‘qituvchi tomonidan amalga oshirishga bog‘liq faoliyatda natijalar samarasi va uning qay darajada kafolatlanganligi uning pedagogik va psixologik bilimlarga bo‘lgan munosabatining ijtimoiy zarurat mazmunini aniqlashga imkon beradi. Bu esa o‘z navbatida o‘qituvchini pedagogik faoliyat istiqbolini rejorashtirishini, “o‘qituvchi-o‘quvchi”, “o‘qituvchi-guruh”, hamkorligi yo‘nalishlarini pedagogik - psixologik nuqtai-nazardan aniq tashxislashini, o‘quv axborotlarini uzatish va mustaxkamlashda har bir o‘quvchining o‘zlashtirish imkoniyatlarini tahlil qilish va shu asosida ilmiy-nazariy ma`lumotlar ustida ishslashga zamin yaratadi. Bu esa o‘z navbatida uning ko‘nikma va malakalarga, ta`bir joiz bo‘lsa kasbiy maxoratiga. Eng aniq va to‘g‘ri metodikalar, sharoitlar va uslublar mutanosibligini belgilash zaruratini oldinga suradi. Yuqorida keltirilgan talablarni amalga oshirishda o‘qituvchining pedagogik-psixologik bilimlari ma`nosi va o‘qituvchi imkoniyatlari qanday bo‘lishi lozimligi haqida mushohada yuritsak. Albatta, o‘qituvchidagi mavjud pedagogik - psixologik bilimlar tahsil olayotgan o‘quvchilarning erkin fikr yuritishi, mustaqilligi, faoliyat yuritishi va ijodiylik qobilyatlarini shakllantirish yoki bo‘lmasa o‘quvchi shaxsini maqsadli rivojlantirishda ahamiyati juda kattadir. Ammo, pedagogik jarayonda pedagogik - psixologik bilimlarni tadbiq qilishda o‘qituvchi faoliyatida rejalilik, tizimlilik, yaxlitlik, asoslilik, ta‘lim mazmunini ijtimoiylashtirish, insonparvarlashtirish, shuningdek insoniylashtirish qoidalari negizida tashkil qilinsagina u samara beraoladi.

O‘qituvchining psixologik va pedagogik bilimlarini yanada oshirish va takomillashtirish maqsadida o‘qituvchining guruh rahbari sifatida faoliyat yuritishi



maqsadga muofiqdir. Chunki, o‘quvchilar jamoasini ya`ni konkret guruhni shakllantirish, o‘quvchilar guruhini boshqarish, shaxslararo munosabat va muloqot uslublaridan samarali foydalanish, guruh ko‘rsatkichining asosiy mazmun - mohiyatini o‘quvchilarga yetkazish, hamjihatlik va hamkorlikda faoliyat yuritish kabi masalalarga oid bilimlarga ega bo‘lishi ijtimoiy faollashish hamda guruhiy faoliyat yuritish mehanizmini yuzaga keltirishga yordam beradi.

Har bir o‘qituvchi o‘zi boshqarayotgan sinf o‘quvchilarining yetakchisi sifatida ham faoliyat yuritadi. O‘quvchilarning sinfdan – sinfga ko‘chishi jarayonida ularning shaxsiy sifat, xususiyat va fazilatlarining shakllanishi va rivojlanishiga katta ta`sir o‘tkazadi. O‘quvchilar sinf rahbari va guruh a`zolari munosabatlari, sinfdoshlar bilan o‘rnatiladigan munosabatlar, o‘zaro tanlanishlar, guruh sardori va uning yordamchilari bilan aloqalari orqali shakllanishi zarur bo‘lgan xususiyatlardan tashkilotchilik, hamjihatlik, tolerantlik va liderlik xususiyatlarini to‘g‘ri va samarali tashkil qilish masalalariga ham katta e`tibor qaratadi.

O‘qituvchining o‘quvchilar guruhlarida guruhiy faoliyatni to‘g‘ri va samarali tashkil qilishi aynan, o‘qituvchi tomonidan guruhni namunali va faol qilib shakllantirish masalasi, har bir o‘quvchining o‘z sinfidagi mavqeyi va ijtimoiy roli, guruhning o‘quvchi rivojiga, o‘quvchining guruh a`zolariga hamda uning guruh munosabatlariga ta`siri masalasi ham o‘ta muhim sanaladi. O‘quvchilar o‘rtasida shaxslararo munosabatlarning maqsadga muofiq tarzda tashkil etilishiga, ular o‘rtasida bir-birlariga nisbatan do‘stona munosabatlarining qay darajada shakllangani ham hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Bu esa, guruh bikirligi - guruhning integratsiyasi darajasini ko‘rsatuvchi muxim jihatlardan biridir. Uning bir butunlikka birikkanligi faqat psixologik muxitning ya`ni sharoit, vaziyatning ijobiy yoki salbiyligini aniqlashga yo‘naltirilgan hodisadir.

O‘quvchilar guruhlaridagi muloqot, munosabat va muomala jarayonining muhim bo‘lgan jihatlaridan ya`na biri sinf o‘quvchisida shaxslararo munosabatlar va ijtimoiy munosabatlarning farqi, mazmun-mohiyati, me`yorlari, qoidalari va tafovutlarini o‘quvchi tomonidan o‘zlashtirilib olinishidir. O‘quvchilar guruhlarida yuzaga keladigan axborot almashish jarayonida muloqotning perceptiv, interaktiv tomonlari to‘g‘risida tushunchalarga ega bo‘lishlari, muloqot turlaridan samarali foydalanish, rolli kutishlar va psixologik qonuniyatlar asosida shakllanishi o‘z

ifodasini topadi. Ushbu jarayon o‘quvchida kelajakda muloqandmand bo‘lishi, erkin, ijodiy va mustaqil fikr yuritishi uchun katta zamin yaratadi.

O‘qituvchining o‘z sinfi o‘quvchilari bilan faoliyat yuritishida o‘quvchi psixologiyasining o‘ziga xos jihatlari ya`ni har bir yosh bosqichidagi individual xususiyatlar yig‘indisi ijobiy takomillashuvini to‘g‘ri tashkil qilish uning kelajakdagi hayotiy pozitsiyalari, ustakovkalari, qarashlari, maqsad va motivatsiyasini, shaxs yo‘nalishi, o‘z-o‘zini anglashi, o‘z-o‘zini baholashi, insonga xos bo‘lgan barcha ijtimoiy belgilarni o‘zida tarkib toptirishga mas‘uldir. Shu bilan birga milliy, ma`naviy, axloqiy tushunchalar, davr va zamon xususiyatlarini, guruhning shakllanganlik darajasini, guruh faoliyatiga aloqador bo‘lgan me`yorlarni belgilab beruvchi shaxsdir.

O‘quvchilarning hamkorlikda faoliyat yuritishi, guruhiy munosabatlarining samarali kechishi, tengqurlari bilan o‘z hayotiy maqsad va vazifalarini o‘rtoqlashishi, istiqbolli rejalar tuzishi biror bir kasbga qiziqishi va ongli kasb tanlashi masalalari ham o‘ziga xos xususiyatlar ega bo‘lib aynan sinf rahbari hamkorligida amalga oshirilishi ham muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Maktab o‘quvchisining kelajagini oldindan belgilab olishi hamda maktabni muvaffaqiyatli va namunali bitkazishida o‘qituvchi tomonidan hamkorlikda amalga oshiriladigan o‘quv-biluv faoliyatini ham katta ahamiyat kasb etadi.

O‘qituvchiga berkitilgan sinfning a`zolarining o‘z guruhida sog‘lom psixologik muxitni yaratishi ham o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatiga bo‘lgan munosabatlarini ijobiliylashtirish hamda guruh a`zolarini uyuştirish, munosabatlar o‘rnatishda maqsadlar qo‘yish va guruhiy faollikka erishish kabi masalalar muxim sanaladi.

O‘qituvchi sinf rahbari sifatida guruhiy rivojlanish tushunchasini o‘quvchilarga yetkazishi bu guruhning turg‘un holatidan farqli ravishda, guruh hayotida sodir bo‘ladigan jarayonlar ya`ni rag‘batlantirilish, jazolash, qaror qabul qilish, guruhning bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o‘tishi, guruhning harakatlanishi, ichki munosabatlar va bog‘lanishlar tizimining shakllanib borishida namunali va ijtimoiy faol guruh mavqega erishishi zamirida o‘qituvchining guruh bilan hamkorligi va bikriliği yotadi.

O‘qituvchi tomonidan sinf o‘quvchisida motivlar tizimini to‘g‘ri shakllantirish, shaxs yo‘nalishi, o‘z-o‘zini anglashi, o‘z-o‘zini baxolashi, insonga xos bo‘lgan barcha ijtimoiy belgilarni o‘zida tarkib toptirishga mas‘uldir.

Sinf rahbari o‘zining sinfidagi o‘quvchilariga milliy, ma`naviy, axloqiy tushunchalar, davr va zamon xususiyatlarini, guruhning shakllanganlik darajasini, guruh faoliyatiga aloqador bo‘lgan me`yorlarni belgilab beruvchi shaxsdir.

O‘quvchining ijtimoiy faol bo‘lishida sinf rahbari mas`uliyatlilik, tashkilotchilik, intizomlilik, hamjihatilik sifatlarini takomillashuvida katta rol o‘ynaydi. Guruhning dinamikasiga ta`sir qiluvchi eng katta omil sinf rahbarining yetakchilik qilish qobiliyatini namoyon qila olishida va o‘z guruhi a`zolari bilan hamkorligiga bog‘liqdir. Shaxsning guruhda tutgan o‘rni, guruhiy munosabatlarning xususiyatlari, guruh yulduzlari, guruhning tan olingan sardorlari, guruhning yakkalanib qolgan a`zosi, guruhdagi kichik guruhchalarning tarkibi va yana bir qator shu kabi ma`lumotlarni olish imkoniga ega bo‘linadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirzaev, A. (2017). "Ta'lim jarayonida o‘quvchilarning faoliyatini oshirish." O'qituvchilar va ta'lim tizimi, 45-50.
2. Ibragimov, S. (2019). "O'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish usullari." Pedagogika va psixologiya jurnali, 3(1), 22-29.
3. Xodjaeva, D. (2020). "Innovatsion metodlar orqali ta'lim jarayonini samarali tashkil etish." Ta'lim va innovatsiyalar, 12-15.
4. Jumaniyozov, R., & Turaeva, M. (2021). "O'qituvchi va o'quvchi munosabatlari: samaradorlikka ta'siri." Ta'lim sohasida tadqiqotlar jurnali, 7(4), 78-83.
5. Abdullaeva, N. (2022). "Faol ta'lim metodlari: nazariy va amaliy jihatlari." O'zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi nashrlari.
6. Saidova, Z. (2018). "O'qituvchining pedagogik mahorati: o‘quvchilarni faollashtirishdagi roli." Pedagogik tadqiqotlar, 5(2), 34-41.

**Research Science and
Innovation House**